



Suhbat odobi

3-bet



Maktab  
ohangrabosi

7-bet



Zavarrzak va  
Qizarcha afsonasi

9-bet

www.tongyulduzi.uz

TONG

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

yulduzi

2010-yil  
18-oktabr  
N:42  
(66791)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

21-Oktabr - O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun

## Til begi bo'lish osonmi?

U nima degani? Siz bu iboraga birinchi duch kelayotgan bo'lsangiz, hali ko'nglingizda uning nafasi ham bo'lmagani uchun biroz erish tuyulib, ajablanasiz. Ammo «til begi» sekin dilingizga o'tiradi. Endi fikrlay boshlaysiz va «Til begi bo'lish osonmi?» degan to'xtamga kelasiz.

Marg'ilonga bordik, odamlarning bir-birlari bilan juda samimiy gaplashayotganlarini, qo'llarini ko'ksilariga qo'yganicha ta'zim qilib, bir-birlarining hurmatlarini joyiga qo'yayotganlarining guvohi bo'ldik. Yana o'rnilaridan turib, mehmonni «Xush kelibsiz!» deya tavoze bilan kutib olayotganlarini ko'rib, Abdulla Qodiriy shu yerdan Kumushbibini behuda tanlamaganini ham angladik.

(Davomi 6-betda)



Buxoro viloyati, G'ijduvon shahar pedagogika kolleji talabasi Dilnoza Sharipova hamda Samarqand shahridagi 37-maktabning 6-«V» sinf o'quvchilari Doniyor Joniyev va Regina Tursunovalar barcha tengdoshlari kabi Til bayramiga qizg'in hozirlik ko'rishyapti



Samarqandlik tengdoshlaringiz haqidagi maqolani keyingi sonda o'qiydiz



O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 21 yilligi bayrami arafasida Navoiy bobomizni bot-bot yodga olamiz. Chunki she'riyat mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy tilimizning keng imkoniyatlari, boyligi-yu nafisligi, betakrorligi-yu jozibadorligini «koʻz-koʻzlab», bu tilda samarali ijod qilganlar.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimasi, filologiya fanlari nomzodi Robiya RAJABOVA dan bobomizning tilimiz ravnaqiga qoʻshgan salmoqli hissasi haqida soʻzlab berishni iltimos qildik.

## KAYRLI DARAKCHILAR

O'zbek tili aslida dunyodagi boy va qudratli tillardan biri sanaladi. Uni jahonda Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bobur tili sifatida bilishadi. Bu til hozirgi zamon o'zbek adiblari va shoirlari tomonidan yanada takomillashtirilmogda. Siyosat, iqtisodiyot, ilm-fan va boshqa sohalarining taraqqiy etishi esa tilimiz rivojiga hissa qo'shuvchi manbaalar hisoblanadi.

Istiqlol tilimizga yuksak mavqe bag'ishladi. Uni Davlat tili maqomiga ko'tardi. Xalqimiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylanganidan keyin turli davlatlarda «O'zbekiston» nomi borgan sari dadilroq sado berayapti. Madhiyamiz jahon maydonlarida jaranglamogda. Boshqa xalqlarda o'zbek tilini o'rganishga qiziqish kuchaymogda. Ayniqsa, o'zbek kurashi vositasida dunyoning deyarli barcha qit'alarida «yonbosh», «chala», «halol» degan o'zbekcha so'zlar mustahkam amaliyotga kirdi. Bular tilimiz istiqbolining xayrli darakchilari.

**Sohiba XALILOVA,**  
**Toshkent Moliya va iqtisodiyot kolleji**  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Hazrat Navoiy bobomiz o'ttizdan ortiq she'riy, nasriy asarlari bilan turkiy tilni jahon miqyosiga olib chiqdi. Bu tilda ijod qilgani bilan nihoyatda faxrlandi:

*Chun toptim ul kalom ichra kamol,  
Turk alfozi bila surdim maqol.  
Turk nazmida chu men tortib qalam,  
Ayladim u mamlakatni yakqalam.*

Til tarixidan ma'lumki, Navoiy turkiy tilining ayrim qonuniyatlari bilan qiziqib, «Muhokamatul-lug'atayn», «Sab'atu abhur» nomli asarlar yozib, qimmatli fikrlar qoldirgan.

Navoiy tillarning qadimiy ekanligini «Muhokamatul-lug'atayn» asarida ta'kidlab, dunyo tillarini uchga bo'ladi va turkiy, forsiy, hindiy «asl tillarning boshlanishidir» degan fikrlari barobarida turk va forsi tillarini qiyoslab, ayrim hollarda ona tilimizning boyligini, nafisligini, yasovchilarning ma'no bo'yqoqdorligini 100 ta so'z misolida ta'rif-tavsiflab beradi.

«Muhokamatul-lug'atayn» asarida aytib o'tilgan e'tiborli fikrlaridan yana biri shuki, turkiy tilning bitmas-tuganmas imkoniyatlarini ko'rsatib, «O'z tillari bilan ko'prak aytisalar edi, chunki hammasi o'z millati uchun aziz, ulug'vordir» degan umumbashariy niyatini yozib qoldirdi. Bu niyatiga

hamohang holda «Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz» hikmatida Hazrat bobomiz til – millatning, elning qalbi, demak ona tiliga, xalq tiliga e'tiborsizlik – elga e'tiborsizlik, o'z elini bilmaslik, yaxshi tushunmaslik, degan hayotiy haqiqatni ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, Navoiy forsi va arab tillarini ham hurmat qildi, ulardan ustalik bilan foydalandi. Hatto, ba'zi asarlarida «So'z» va undagi ma'no haqida maxsus bob va fasllar yozib qoldirdiki, bunga misol tariqasida «Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayratul-abror»da berilgan «So'z» haqidagi ikki bobni eslaylik. Navoiy insonni ulug'lar ekan, uning boshqa mavjudodlardan imtiyozini so'zda ekanini ta'kidlaydi. «Insondan bo'lak mavjudod so'zlashish imkoniyatiga ega emas» deb dostonida shunday baytlarni mohirlik bilan yaratadi:

*Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.*

So'z hatto olamni yaratish vositasi bo'lganligi haqida rivoyatlar keltirib o'tadi.

Aziz o'quvchi, Navoiy – turkiy tilning qudratli manzilgohlaridan biri, degan xulosamiz ostida Hazrat Navoiy – turli asarlarida yozib qoldirgan so'z va til haqidagi hikmatlaridan ayrimlarini keltirib, pand-u nasihat o'rnida foydalansak:

*«Chin soʻz – moʻtabar, yaxshi soʻz  
muxtasar».*

*«Befoyda soʻzni koʻp aytma va foydaligʻ  
soʻzni eshiturdin qaytma».*

*«Tiling birla koʻnglingni bir tut».*

*«Koʻngul maxzanining qulfi til va ul  
maxzanning maxiddin soʻz bil».*

*«Oqil chin soʻz din oʻzgani demas,  
Ammo barcha chinni ham demak, oqil  
ishi emas».*

Navoiy o'zbek tilining kuch-qudratini, boyligini namoyish qilganligi haqida Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlaridan biri sifatida u haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan: «Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keldi. Biz bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz».

Asrlar davomida buyuk shoir millatning millat bo'lishidagi asosiy xususiyati til ekanligini uqitirib, «ulug' muddao»larimiz ona tilimizda go'zal va nafis, yanqrog' chiqishini bizlarga eslatib tursa, ne ajab?!

**Feruza JALILOVA** yozib oldi

## CHIROYLI GAPIRISHNI

– *Nazo, yur, Dur-donnikiga borib kelaylik, mazasi yo'q ekan.*

– *Yo'q, bugun vaqtim yo'q. Paxanni denrojdeniyalari, uyga vaqtliroq borishim kerak.*

– *Slushay, mojet zavtra borarmiz.*

– *Posmotrim...*



## BILASIZMI?

Avtobusda ketayotib, ikki dugonaning suhbatu qulog'imga chalindi. Chiroyiga boqib, ko'zingiz quvnaydigan bu qizlarning baland ovozda o'zbekcha-ruscha aralash so'zlashishlari, otadek buyuk zotga «paxan» deya nisbat berishlari, to'g'risi, g'ashimni keltirdi. Shular haqida o'ylab ketayotgandim, pattachi ayolning: «Qani, passajirlar,

bilet olinglar. Proyeznoyi borlar ko'rsatib tushinglar», degan gaplari xayolimni buzib yubordi...

Xohlaymizmi-xohlamaymizmi, ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida bunday gap-so'zlar beixtiyor quloqqa chalinaveradi. Ayniqsa, ayrim yoshlarimiz orasida bunday so'zlashish, «paxan», «mamashka» kabi iboralarni qo'llash rusm

bo'lgandek, nazarimda. Bunday holat ularda beixtiyor sodir bo'ladimi yoki ataylab shunday so'zlashishdimi, aytish qiyin. Lekin, meningcha, bunday so'zlashish nafaqat yonatrofdagilarga, balki Navoiydek ajodlarimiz ardoqlagan o'zbek tilimizga nisbatan ham hurmat-sizlikdir.

Bu fikrlarim barcha yoshlarimizga ham tegishli emas, albatta. Hozirda bir emas, bir necha xorijiy tillarni mukammal o'rganishga intilayotgan yoshlarimiz juda ko'p. Shunday bo'lsa-da, sof o'zbek tilida so'zlashishadi. Zar qadrini zargar biladi, deganlari shu bo'lsa kerakda. Ular ona tilimizning qadr-qimmatini juda yaxshi bilishadi.

*Aziz yoshlar, keling, sof  
o'zbek tilida gaplashishga bir  
urinish ko'raylik.  
Ishonaman, Siz, albatta,  
buning uddasidan chiqasiz.*

**Manzura UBAYDULLAYEVA**

Boshi o'lgan sonlarda

Bunday hollarda buyuk shoirlarimizning ruhi chirqillasa kerak: nahotki XV asrda yuzlab kattakichik shoirlar bemalol uddalagan vazni (Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida nomlari zikr etilgan shoirlar ijodidan namunalariga qarang) XXI asrda kompyuter ilmini egallagan avlod eplay olmaydi?

Bobur Mirzoning pok ruhi hurmati yuqoridagi g'azal vazni naqadar mukammal

Abdulla A'ZAMOV

## ARUZ

ekanini namoyon qilaylik. Bunda kitobxonlarga har qancha erish tuyulmasin, yana jadvalga murojaat etamiz – bu nafaqat vazni yaqqol ko'rsatish, ayni paytda g'azalni to'g'ri o'qish uchun ham kerak.

Ha, Navoiy va Bobur g'azallariga ideallik xususiyati xos. Ham vazn, ham qofiya, ham badiyat va, albatta, mazmun jihatidan. Buni anglab yetish uchun, birinchi navbatda, ularni to'g'ri o'qishga o'rganish lozim. Yana takrorlaymiz, buning hech bir qiyin joyi yo'q – biroz qunt kifoya. Suhbat asnosida aruz haqida muayyan tushuncha berishga uriniyapti. Kitobning ikkinchi bobi esa to'liq shu maqsadga

Ajdodlarimiz azal-azaldan madaniyat bilan so'zlash, sodda va o'rinni gapirish, nutq odobini saqlashga katta e'tibor qaratganlar. Negaki, kishining odobi, avvalo, uning gap-so'zida namoyon bo'lib, insonlarga so'zlashish odobiga qarab baho berilgan. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub», Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarlarida bu mavzuga keng to'xtalganlar.

Rivoyat qilishlaricha, qadimda bir podshoh tush ko'ribdi. Tushida uning og'zidagi barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Tushning ta'birini bilmocchi bo'lgan podshoh huzuriga ta'birchilarni chaqirtirib, tushini ularga aytib beribdi. Shunda ta'birchilardan biri:



– Bir qoshiq qonimdan keching, olampanoh, tushdagi tishlar – bu yaqin qarindoshlarning holahvolidan darak beradi.

Tushingiz yaqin kunlarda barcha qarindoshlaringizdan ayrilib qolishingizdan dalolat bermoqda, – debdi.

Podshoh bu gapdan darg'azab bo'lib turganida, ikkinchi ta'birchi:

– Hukmdorim, bu tushingizning ta'birini yaxshilikka yetaklaydi. Negaki, ko'rgan tushingiz Siz barcha qarindoshlaringizdan uzoq yashashingizni bildiradi, – deya tushni yaxshi tomonga ta'riflabdi. Bundan

quvonib ketgan podshoh ikkinchi ta'birchini mukofotlashni buyuribdi. Birinchi ta'birchiga esa: – O'ylamay gapiruvchi insonlarga bu yerda o'rin yo'q, – debdi-da, uni saroydan quvib chiqaribdi.

Rivoyatdan ko'rinib turibdiki, doimo yaxshilab o'ylab, odob bilan so'zlovchi insonlar barchaga birdek manzur bo'ladilar.

Husayn Voiz Koshifiy «Suhbat odobi haqida», «Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarlarida shunday yozgan:

«So'z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to'g'ri va haqqoniy bo'lishi lozim. Agar shunday bo'lmasa, jim turgan ma'qul. Agar martabaga yetganlarning suhbat odobi nechta deb so'rasalar, sakkizta deb aytil».

## SUHBAT ODOBI

**Birinchidan, so'ramagunlaricha gapirmasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko'tarmasin.**

**Uchinchidan, gapirayotganda o'ng-u so'lga qaramasin.**

**To'rtinchidan, g'arazli va kinoya gaplarni gapirmasin.**

**Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin.**

**Oltinchidan, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin.**

**Yettinchidan, odamlar gapini bo'lib so'z qotmasin.**

**Sakkizinchidan, ko'p gapirmasin. Chunki ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.**

Aziz bolajonlar, yuqoridagi sakkiz qoidaga rioya qilib, gapirishdan oldin obdon o'ylab, fikringizni odob yuzasidan suhbatdoshingizga yetkazing. Doimo til odobiga e'tibor berib so'zlashangiz, Siz ham albatta, odobli bolalar safiga qo'shilasiz.

Gulyuz BAHODIR qizi

## KUZ MANZARASI

*Subhidamda ajib bir ifor —  
O'lkamizda oltin kuz kezar.  
Paxtazorda lo'ppi paxtalar,  
Dalalarning husnini bezar.*

*Atlas ko'ylak kiygan daraxtlar,  
Kuz ertagin hushhol varaqlar.  
Mo'l hosildan berib daraklar,  
Ko'kda quyosh mamnun charaqlar.*

*Turnalarning ma'yus qo'shig'i,  
Taraladi butun samodan.  
Ko'ngil uzmoq bo'ldimi og'ir  
O'zbekiston degan navodan.*

Go'zal TOJIBOYEVA,  
Toshkent Tibbiyot pediatriya  
instituti qoshidagi II-akademik  
litsey o'quvchisi

## O'zbek xalq maqollari

1. Bilim – aql chirog'i.
2. Til bilgan yo'lda qolmas.
3. Bola – aziz, odobi undan aziz.
4. Odob oltindan qimmat.
5. Husn xulqi bilan chiroyli.
6. Baxt belgisi – bilim.
7. Avval o'rgan, keyin o'rgat.
8. Hunarli yigit – mevali daraxt.
9. Qobil farzand – jonga payvand.
10. Bilimli kishi xor bo'lmas.

qaratiladi. Qolaversa, so'nggi o'n yilning o'zida aruzga oid qator risola va qo'llanmalar chop etildiki, istagan o'quvchi aruz ilmini va san'atini egallab olishiga hech bir to'siq yo'q. Muammo, chamasi, boshqa narsada – mumtoz adabiyotga mehr, Navoiyni, Boburni o'qishga, o'rganishga hafsala yetishmasligida.

Qolaversa, asosiy gap vaznning beka-u ko'stligidagina emas. Aslida she'rlarda vazn va qofiya

## BAHSI

kabi shakliy unsurlarning mukammalligi shoirning umumiy mahorati bilan chambarchas bog'liq. Biz bu masalaga quyiroqda qaytamiz.

Shu nuqtayi nazardan «g'azalni qaysi vaznda yozish, vazn talabiga qay darajada amal qilish – bu mening ishim» deyidigan «g'azalnavislar» yanglishadi. Qolaversa, g'azal yozish niyatidagi shoirki, aruzni tan olgisi kelmas ekan, mumtoz adabiyot mavzuidagi darslarni chala-chulpa o'tadigan o'qituvchilardan gina qilib bo'ladimi?

Hozircha esa, mumtoz adabiyotimizdan yosh avlodning begonalashuvi jarayoni chuqurlashib

borayotir. She'rriyat bog'ini olasizmi, estrada maydoninimi – nafosat gullarini dilsizlik xorlari-yu sayozlik xaslari bosib ketayotganining asosiy sabablaridan biri ham shunda. Navoiy, Bobur kabi klassiklarimiz so'z san'atining timsollari, ularning ijodi esa so'z san'ati va iste'dodi maktablaridir. Bu maktabdan o'tgan odam qaysi janrda, qaysi sohada shug'ullanmasin, o'ylabroq ijod qilishga o'rganadi, o'ziga talabchanlikni kuchaytiradi, bundan esa uning o'zi ham, muxlis ham, umuman, xalqimiz ham yutadi.

– **Ijodkorlar Navoiyni, Boburni o'qiydilar. Har yili ularning tavallud kunlariga atab gazetalarda maxsus sahifalar beriladi.**

– Ha, xususan, bu tabarruk kunlar munosabati bilan ularning g'azallariga bog'langan ko'plab muxammaslar chop etiladi. O'z holicha bu yaxshi niyat, xayrli ish. Ammo ijrochi, sifat-chi? Afsuski, talab darajasidagi muxammaslar juda kam. Misollarga murojaat etaylik.

Kamalak quchoq ochsa tog'lardan oshgan chashmada, (?)

Nozingi sabo aylab poyondozi – g'amzadan – (?)  
Qirlar bag'rin yondirgan ey lolavor, ey gulbadan! (?)  
**La'lgun may tutqil oltin jom birla sabzada  
Kim bulardin yaxshi yo'q imkon qizil, sorig',  
yashil.**

Muxammas asli to'liq yetti bandli («Huquq»

gazetasi, 2005-yil, 9-fevral), bu yerda beshinchi bandi keltirildiki, uning saviyasi haqida fikr yuritish uchun kifoya: vazn va qofiya aruz talablariga mutlaqo javob bermasligi ko'rinib turibdi.

Muxammas bog'langan g'azalni olsak, uning noyob xususiyati navoiyshunoslikda qayd etilgan: baytlarda uch rang shunchaki sanalmadi, balki ularning har biri alohida ob'yekt bilan bog'lanadi – mantiqan asoslanadi. Aks holda, «qizil, sorig', yashil» degan bilan she'r chiqmas edi. Chunonchi, yuqoridagi baytda may – la'lgun (qizil), jom oltin (sariq) va sabza (yashil) – maysazor juftliklari san'at yaratgan. Toki muxammasda mana shu xususiyat rivojlantirilmas ekan, uni g'azalga munosib deb bo'lmaydi.

Vazn nuqtayi nazardan qiyoslash uchun Navoiy qalamiga mansub bu mashhur g'azalning taqti'ini keltiramiz:


Xil'-a-tin to' ay-la-mish jo' non qi-zil, so'rig', ya-shil,  
Shu'-la-i o' him chi-qar har' yon qi-zil, so'rig', ya-shil.

La'-l gun may' tutqil oltin jom bir-la sab-za-da  
Kim bu-lar-din' yax-shi yo'q im'kon qi-zil, so'rig', ya-shil.

(Davomi bor)

**«Oktabr – ona tili va adabiyot fani oyligi» munosabati bilan Shayxontohur tumanidagi 115-maktabda qator tadbirlar o'tkazilyapti.**

## Ustozlar ham bellashishdi



«Kimning xati chiroyli?», *Mavjuda Xudoyberganova.*  
«Men havas qilgan alloma», – *Yozuvchilar bilan uchrashuv,*  
«Til – dil ko'zgusi» kabi mavzularida insholar tanlovi, *tilimizga oid kichik sahna ko'rinishi hamda «Zakovat» intellektual o'yinimiz juda qiziqarli o'tadi, – qo'shimcha qildi Shohsanam Norjigitova.*  
«O'zbekiston – Vatanim manim», «Ajodlari ulug' yurt», «Zakovat» haftaliklari, savol-javoblar hamda rasmlar tanlovi o'tkazilyapti.

O'quvchilar qatori maktab o'qituvchilari ham, shogirdlarimizdan qolishmaymiz, deya «Eng yaxshi dars ishlanma»si ko'rik-tanlovini boshlab yuborishdi. *Gulchehra Atayeva, Gulzora Umarova, Navro'za Hosilova kabi uslubiy birlashma a'zolarining faolligi bois tadbirlar qiziqarli va mazmunli o'tmoqda.*

– Biz bu bayramga alohida tayyorgarlik ko'ryapmiz, – deydi 9-«A» sinf o'quvchisi *Bayramona kayfiyatdagi o'quvchilarni ko'rib dilimiz yayradi. Ona tilimizning boyligi, jozibadorligi, uning uzoq tarixga egaligini tushunib yetayotgan o'quvchilar ertaga o'z tillarini qadrlashlariga, uni yanada boyitishlariga shubha qilmadik.*

– Biz bu bayramga alohida tayyorgarlik ko'ryapmiz, – deydi 9-«A» sinf o'quvchisi

OLMOS

## SHAKAROY OPA BIRINCHI

Maktabimizda «Ustozlar qalbi-mizda» nomli rasmlar ko'rgazmasi tashkil qilindi. Ko'rgazmaning eng oldingi qatorida ustozimiz – ona tili va adabiyot o'qituvchisi Shakaroy opa Farmonova turganligi meni juda quvontirdi. Ularning bilimdonliklari-yu talabchanliklari bois men ikki yildan buyon fan olimpiadasida birinchi o'rinni qo'lga kiritayapman.

O'pamizning darslarida hech bir o'quvchi bee'tibor qolmaydi. Haftaning bir soatida maqollar o'qiyamiz, she'rlar yodlaymiz.

Ifodali o'qishimizni talab qiladilar. Ayni kunlarda esa Til bayramiga puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Shakaroy opadek ustozdan ta'lim-tarbiya olayotganimdan faxrlanam. Kelgusida ustozlarim ishonchini oqlashga harakat qilaman.

*Komila ABDUXOLIQOVA,  
Surxondaryo viloyati,  
Jarqo'rg'on tumanidagi  
2-maktabning 7-«A» sinf  
o'quvchisi*



**SO'Z XAZINA**

Turfa so'z bor ona tilimda,  
Sanog'iga yetmam daf'atan.  
Har bir so'z, bu bebaho boylik,  
Eng azizi – «Ona» va «Vatan».

Bola zehnin boyitib so'zga,  
Ulg'ayadi zinama-zina.  
So'zni zoye etmagil aslo,  
Har bitta so'z – bitta xazina.

Har bir so'zki, salmog'i bo'lak,  
O'ylab ishlat so'zlasang agar.  
Sayqal bergan ajdodlarimiz,  
Tilimizga yuqtirmagil gard.

Mohichehra KENJAYEVA,  
Surxondaryo viloyati,  
Sho'rchi tumanidagi  
20-umumta'lim maktabining  
7-«A» sinf o'quvchisi

**JILVASIDAN  
ZAVQLANAY**

O'zbek tili misli ummon,  
So'z durlarin terayin.  
Navoiydan ilhom olib,  
Navolarga berayin.  
Sayqal berib har jumлага,  
Jilvasidan zavqlanay.  
Tilimizni e'zozlagan,  
Do'stlarimdan aylanay.  
Qanday go'zal, qanday nafis,  
Bebahodir ona tilim.  
Bo'ronlardan, to'fonlardan,  
Asragin, dono elim.

Nazokat  
MIRHABIBOVA

**ONA TILIM**

O'sib, katta bo'lyapman,  
Huquqimni bilyapman.  
Vazifam va burchimni,  
Dildan ado qilyapman.

Faxrlanib so'zlaydi,  
Bu tilda mening elim.  
O'zbek tilim – o'z tilim,  
Desam yayraydi dilim.

Puxta bilim olib men,  
Talpinaman ziyoga.  
O'zbek tilim boyligini,  
Ko'z-ko'zlayman dunyoga.

Risolat IBRAGIMOVA,  
Toshkent shahridagi  
296-maktabning  
7-«V» sinf o'quvchisi

**KIChKINTOYLAR  
BAYRAMI**

Jizzax shahridagi  
1-umumta'lim  
maktabida «Tilga  
ixtiyorsiz – elga  
e'tiborsiz» mavzuida Til  
bayramiga bag'ishlangan  
qiziqarli kecha bo'lib  
o'tdi.

O'zbekiston Davlat Madhiyasi bilan boshlangan kechada o'quvchilar Tursunboy Adashboyevning «Ona tilim» va Mirpo'lat Mirzoning «O'zbekiston» she'rlarini deklamatsiya qilishdi va ma'nolarini tushuntirishdi. Til haqidagi maqol, aforizm va hikmatli so'zlardan namunalar keltirishdi.

Shuningdek, til tarixi, o'zbek tilining ulug'vorligi, qudrati to'g'risida ma'ruzalar tinglashdi. Bunda o'quvchilar rasmlar, turli ko'rgazmali vositalar hamda stendlardan foydalanishdi.

Ayniqsa, «Yil o'qituvchisi – 2010» respublika tanlovining «Eng ilg'or o'qituvchi» nominatsiyasi g'olibi, oliy toifali pedagog Jamila Jo'rayeva rahbarligidagi 3-«A» sinf o'quvchilari faollik ko'rsatishdi.

Kichkintoylar tilga e'tiborsiz bo'lish odobsizlikni anglatishi, hech kim nazarga ilmaydigan inson bo'lib qolmaslik uchun har kim oz va soz so'zlashi lozimligini ta'kidladilar. O'quvchilardan Laziz Abdulomov,

Mohira Saidova va Toshpo'lat Usmonovlar «Tulporim» ashulasi hamda o'zbek milliy raqslarini ijro etishdi. Kecha so'ngida eng faol ishtirok etganlar rag'batlantirildilar.

Ushbu o'quv dargohining boshlang'ich sinflari o'rtasida ham o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan Til bayrami, qiziqarli adabiy kecha, ko'rik-tanlovlar, ochiq tarbiyaviy soatlar o'tkazilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yosh avlodga ona tilimizning ulug'vorligi, qadr-qimmatini balandligini uqtirish, ular qalbida urf-odatlar va an'analarimizga e'tiqod tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

Abdulla SAIDOV,  
Jizzax viloyati

**(Boshi 1-betda)**

Inson deyilganda, uning ko'p fazilatlar qatori til madaniyati ham asosiy ahamiyatga ega. Odamiylikning bu durdonasidan mosuvo kimsa shon-u sharaftan ham yiroq bo'ladi.

Til begi bo'lish katta san'at. Chiroyli so'zlagan kishini ko'rganingizda, unga havasingiz kelib: «Tili chiroyli ekan», deya unga mahliyo

bilan to'ldirish, ya'ni olam ahliga ezguliklar baxsh etish demakdir.

Tilimizning jozibasi shundaki, ostonaga kelgan kishi borki, xalqimiz bag'rini keng ochib kutib oladi va qalbidagi eng nodir so'zlar bilan siylaydi, eng tansiqli taomlarini unga ilinib, xizmatida shay turadi. «Buncha yaxshi xalq bu!» – deydi mehmon ham hayratlanib.

Momomiz, onamiz: «Qizim,

O'zbekiston desa, dunyo ahli qalbi toza, shirinso'z xalqimizni, o'sib kelayotgan yangi avlodni, jahon uzra g'oliblikni qo'lga kiritayotgan sportchilarimizni ko'z oldiga keltirib, shodlik bayrog'ini baland ko'taradi.

Yaqinda bir xorijlik do'stimiz shunday so'rov o'tkazdi:

– O'zbekning eng yaxshi so'zi nima?



# Til begi bo'lish osonmi?

bo'lasiz. Bunday odam shirinso'zligi bois do'stlari orasida, oilasida, jamiyatda obro', e'tibor topadi.

Sevikli shoir bobongiz Tolib Yo'ldosh satrlariga e'tibor bering:

*Bir so'z bilan har kishi  
O'zligini ko'rsatar.*

*So'z gavharin ko'pincha  
Dono olar, ko'r sotar.*

To'g'ri-da, til begi sohibi shirin so'zi bilan dunyo topadi, aksincha, tili zahar kimsa hamma narsasini yo'qotadi: baxtini, imonini, obro'sini – hammasini boy berib, oxiri notavon kimsaga aylanadi. E'tibor bering: ko'p noliydigan kimsalarning notavonligi darhol bilinadi.

Hazrat Navoiy bobongiz: «Insonni so'z ayladi judo hayvondin», deydi. Bundan ortiq sharaf bormi?

Til begi!

O'zbek tilining imkoniyatlari juda keng. Dunyoda besh mingga yaqin til mavjud bo'lsa, o'shalarning ichidagi eng nufuzli, eng boy tillardan biri ham shu ona tilimizdir. Shu tilning begi bo'lish – dunyo til xazinasi boyitish, uni yangi ibora, maqollar

kelinim, ostonani supurib qo'y», deydi shu tilda. Ertalabdan yog' tushsa yalagudek ostonalarni, ko'chalarni ko'rib, qalbiz yasharib, vujudimiz yayraydi. Shu tilimizda yangragan bokira so'zlar sharofatidan emasmi bu?! Til bekalari bo'lgan momo va onalarimiz shirin so'zlaridan emasmi bu?!

Ovqat tanovul qilib tursak, «Osh bo'lsin», deyishadi. Bundan tanamiz huzur qiladi. Suv berganda «Suvday serob bo'l», deb minnatdorlik bildiradilar. Ertalabdan qariyalarimiz: «Dunyoda tinchlik bo'lsin!» – deya duoga qo'l ochadilar.

Bu shunday til. Dunyoga, insoniyatga yaxshilik istagan til. Shu bois, bu til hurmatga, e'tiborga loyiq. Dunyoda tillar ham daraxtlar singari barq urib rivojlansa, toza, sarxil mevalar singari odamzod qalbini sog'aytirib, uni ezguliklar tomon boshlaydi. O'zbek tili mustaqillikning ilk kunlaridan o'z dunyo maydoniga «Tinchlik, ezgulik, barqarorlik, taraqqiyot» shiorlari bilan kirib bordi va bugun

- Tinchlik! – dedik.
- Izzat qilgani kim?
- Ona!
- Kutgani kim?
- Mehmon!
- Qadrlagani nima?
- Do'stlik!
- Nasihati nima?
- Ilm ol, hunar o'rgan, odam bo'!
- Bu buyuklik nishonasi! – dedi subhatdoshimiz.

Hali bu til insoniyatga ko'p ezguliklar baxsh etadi. Bugun beshigida ulg'ayayotgan bolakay ham onasining allasini eshitib, murg'ak qalbiga elining eng ezgu so'zlarini jo'etmoqda. U eraga o'z tilining begi bo'ladi. Til begi bo'lgan inson yaxshilikdan, do'stlikdan, tinchlikdan so'zlaydi, farovonlikni orzu qilib, shu yo'lda mehnat qiladi, «Olamga go'zallik hadya etaylik!» – deya boshqalarni ham yaxshilikka boshlaydi. Shunday sharafli yashashga o'rgatayotgan tilni har qancha ulug'lashning o'zi ham baxt.

Til begi bo'ling, yosh do'stlarim! Bu baxtga siz ham muayassar bo'lasiz!

TOSHKENT SHAHAR

XALQ TA'LIMI BO'LIMI

SERGELI TUMANI

**Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi maktab o'quvchilari gazetamizning faol muxlislaridan hisoblanishadi. Ular o'zlari bilim olayotgan maskanda bo'lib o'tgan har qanday tadbir yoki yangiliklar borasida to'lib-toshib yozadilar.**

## MAKTAB OHANRABOSI

O'quvchilarning faolligi borasida tuman xalq ta'limi bo'lumi mudiri, xalq ta'limi a'lochisi Safarali Hamroyev bilan suhbat-lashdik.

– Ta'lim tizimida ham islohotlar jaryoni keng qamrovda olib borilayotgan bir paytda har qanday yangilikni o'z o'rinda amaliyotga tadbir etilishi katta ahamiyatga ega. Ayni damda tuman xalq ta'limi bo'lumi va ta'lim muassasalari o'rtasida elektron aloqa to'liq yo'lga qo'yildi. Ya'ni, mavjud 67 ta ta'lim muassasasining barchasi o'z elektron manzillariga ega bo'lib, ular orqali yuqori tashkilotlardan kelgan barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlar vaqtida qabul qilinmoqda. Bu esa o'z o'rinda ortiqcha qog'ozbozlik, sarf-xarajat, eng asosiysi, vaqtni behuda sarflanishini oldini olmoqda. Ma'lumot almashish samadorligi oshdi. Agar ayrim ta'lim maskanlarini tuman markazidan 15-20 chaqirim uzoqlikda joylashganini inobatga olsak, yangi texnologiya samarasi yanada yaqqolroq ko'rinadi.

– **Tuman xalq ta'limi bo'lumi o'z veb-saytiga ega ekan...**

– Mazkur saytda tuman xalq ta'limi bo'lumiga oid bo'lgan ko'plab ma'lumotlar jamlangan. Bundan tashqari, hozirgi kunda tumanimizdagi 20 ta ta'lim muassasalarining xalqaro internet

sog'alarga ega bo'lishdi. Yuqoridagilardan ilhomlangan holda tumandagi o'qituvchilar o'rtasida «Eng zo'r fan o'qituvchisi sayti» ko'rik-tanlovini e'lon qilgandik. Bu tadbir ham kutganimizdek, yaxshi natija berdi.

– **Safarali aka, sal oldinroq aytib o'tganimdek, sergelilik o'quvchilardan ko'plab maktablar olamiz. Ana shunday maktablardan biri tahririyat xodimlarini juda quvontirgan edi. Adashmasam, tumandagi 104-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Gulhayo Boyqobul qizi yozgi ta'limning dastlabki kunlaridanoq maktabi, ustozlarini sog'ina boshlagani haqida yozgan edi. Ochig'i, ko'pchil-**



**«Respublika tanlovi g'olibi bo'lish naqadar zavqli, ammo uning mas'uliyati ham katta bo'larkan», deydi 300-maktab direktori Jamila opa Sindarova.**

tarmog'ida o'z veb sahifasi mavjud bo'lib, ota-onalar o'zlari uchun zarur paytda undan bema'lol foydalanishlari mumkin. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, 40 nafar o'qituvchilarimiz ham o'z veb sahifalariga ega bo'lib, hamkasblari bilan tajriba almashib turadilar.

– **Izlanuvchan, yangilikka intiluvchi ustoz va murabbiylar o'z vaqtida rag'batlantirilib turiladimi?**

– Albatta, tashabbuskor ustozlarning mehnati hamisha e'tirof etib kelinadi. Mazkur yilda «2010 – yilning eng namunali maktab sayti» respublika tanlovida tumanimizdagi 300-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining sayti faxrlı 2-o'rinni, 318-ixtisoslashtirilgan maktab-bog'cha majmuasining sayti 3-o'rinni qo'lga kiritib, qimmatbaho

ligimiz bu holga hayron bo'ldik.

– Menimcha, bu tabiiy hol. Chunki umummilliy dastur asosida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari natijasida tumandagi 27 ta umumta'lim maktablari zamonaviy talablar darajasiga ko'tarilib, zarur o'quv jihozlari bilan to'la ta'minlandi. Bizning asosiy maqsadimiz – o'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun berilgan imkoniyatlardan to'la foydalanish. Yagona istagimiz esa maktab har bir o'quvchi hayotining ajralmas bir qismiga aylanib, ularni doimo ohanraboday o'ziga tortib tursin!

– **Samimiy tilaklaringiz uchun tashakkur.**

Suhbatdosh Yusuf  
ABDULLAYEV



Demak, til millatning tarixi va madaniyatini o'rganish kaliti hamdir. Faqat til bilgandagina shu xalqning ruhini, madaniyati va tarixini to'g'ri tushunish va baholash mumkin.

Tilga nisbatan hurmatsizlik, eng avvalo, xalqqa nisbatan hurmatsizlikdir.

**«O'zlikni anglamoq, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiyati ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir.»**

Islom KARIMOV

Tilning rivoji – millat rivoji.

Aytish joizki, 1989-yilning 21-oktabrida hali sobiq ittifoq

o'rin egallaydi.

Bunday ta'rif-u tavsiflardan quvonmay bo'ladimi, axir?!

Shunday ekan, biz yosh avlod, o'zbek tili, uning tarixi va madaniyati

## ONA

Til xalqning qalbi, uning nomusidir. U ona singari ulug' va mo'tabar. Har bir til o'z xalqi uchun buyuk va bebahodir.

Haqiqatan ham, til xalqning nodir bisoti, boyligi. U mustaqil davlatimiz bayrog'i, gerbi, madhiyasi, qomusi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan timsollardan biriga aylandi.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida til haqida shunday satrlar bor:

*Gar ushbu Vatan bizga aziz ota makondur,  
Sultonlaridin sha'ni aning ro'yi jahondur.  
Kim tilni bilur — elni bilur, insonga shondur,  
Har tilni bilur emdi bani odama jondur,  
Til vosita robitan olimiyondur.*

## KABI MUQADDAS

Abdulla Avloniy bir asarida shunday yozadi: «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on o'ynay hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir.»

Tilda muayyan xalq, millatning ruhi, butunligi namoyon, orzu-umidlari mujassam bo'ladi.

hukmronligi barham topmagan bir paytda o'zbek tiliga «Davlat tili» maqomi berilishi yurtboshimiz va xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma'naviy jasoratdir. O'zbekiston o'zbek tilining gurkirab rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan go'zal diyordir.

O'zbek tili va uning madaniyati haqida buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov shunday yozgan edi: «Qadimgi Gretsiya Yevropada sivilizatsiya (madaniyat) o'chog'i sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkalari va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday


bilan faxrlanishimiz, tilimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz, e'zozlashimiz, hurmat qilishimiz zarur. Chunki tilimizning kamoloti millatimiz taraqqiyoti, milliy madaniyatimiz rivojiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Xalqning ma'naviy boyligi, tafakkuri, tarixi va madaniyati uning tilida o'z aksini topadi. Xususan, har bir o'quvchi o'z ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanib, so'z boyligini oshirishi lozim. Kishining go'zalligi uning tilidan ham bilinadi. Vatanga bo'lgan chinakam muhabbatni o'z tiliga bo'lgan muhabbatsiz tasavvur etish mumkin emas.

**Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 20 yilligi munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Jo'ra aka MAMATOV bilan tilimizning Davlat tili maqomida ustuvor turishi uchun nimalar qilishimiz lozimligi haqida suhbatlashgandik.**

**Til bayrami arafasida fidoyi ustozimiz yana birinchilardan bo'lib tahririyatimizga maqola olib keldilar.**

(Boshi o'lgan sonlarda)

## BO'SAG'A



### 3. «Buzoqning yugurgani somonxonagacha» emas!..

Yuksakda bemaol qanot qoqayotgan kunlarimning birida ta'zirimni yeyishimga bir bahya qoldi. Esimda, otam ishga jo'nashidan oldin yangi qurilayotgan uyimiz tomiga tuproq otishni tayinlagan edi. Bo'yin tovlashning sira iloji yo'q: ertalabki soya-salqinda, nozik-nihol narsa, ichagim uzilgudek chiranib yotgan edim, yuqori tarafdin haligi maqolaga nomi qistirilgan ferma mudiri – qaddi-basti chinordek Norim aka jiyron qashqa otini yeldirib yaqinlashdi.

To'rt paxsa yuqoriga tuproq tashlash nimaligini o'sha azobni boshidan o'tkazgan odamgina tuzukroq biladi, alqissa, kuchana-kuchana bor dunyoni unutgan edim. Turqi-tarovati bahor havosidek buzuq Norim aka qo'lida o'ynoqlayotgan qamchini ko'rdim-u, beixtiyor barini eslab, birdan yuragim orqasiga tortib ketdi. Ko'zi qonga to'lgan, bo'yin tomirlari

o'qlog'i kabi bo'rtgan mudir ayqirgancha bitta gapni takrorlardi: – Zumrasha, peliton qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman! Agar sal bo'sh ketsam, shundoq ham o'tob ko'pchitgan yelkam momataq bo'lib ketishi tayin edi. Baraka topgur og'irgina belkurak ish berdi, o'shani tez-tez havolatgancha jiyron qashqa yonimga yo'lashi uchun imkon bermadim, oqibatda qamchi ro'paramda ilondek vishillashdan boshqasiga yaramadi...

Oradan tirmoq bilan quduq qazishni eslatuvchi qiynoqlarni jamlagan necha yil o'tib, jurnalistlar davrasiga qo'shilgach, jabrdiyda qahramonim bilan yana to'qnashdim. Endi u burungiday gijinglab sapchiydigan qilpocha bedov ustida emasdi, damiga zog'ora ham pishmasdi. Lekin tuyqus mardligi tutdi chog'i, ko'nglida borini to'kib soldi: «Og'ayni, buzoqning yugurgani somonxonagacha,

deb o'ylovdim, adashgan ekanman!»

Hozir ba'zan Norim aka so'zlarini eslasam, hushyor tortib, diliga baumid katta orzu va maqsadlarni tukkan, lekin shafqatsiz, ehtiyotkor va donishmand hayot ko'ndalang qilgan mashaqqatlar tufayli, qolaversa, g'ayrat-u shijoat va qat'iyat yetishmasligi bois, yarim yo'lda qolib ketgan kishilar taqdiri xususida bosh qotira boshlayman.

Hayot hech bir insonni ayamaydi, hadeb peshonasini silamaydi, ko'pincha boshi uzra Norim aka qamchisiga o'xshagan qamchisini vizillatib, irodasini qadamba-qadam sinab boradi.

Asli tan-u jonni toblay-toblay katta hayot oqimi – po'rtanaga to'la ziddiyatli jarayonlarga tayyorlaydigan maktab davrini o'tab, ilk ustozlar ishonchini oqlashdan qiyini yo'qdir, buning uchun chinakam matonat, sabr-u toqat va fahrfarosat talab etiladi. Ammo qutlug' dargoh ro'para qilgan imtihonlar keyin uchraydigan turli xil imtihonlar oldida holva bo'lib qolar ekanki, buni to'kisroq anglashim uchun peshonamni bir necha marta devorga urib, qashqa qilishimga to'g'ri keldi.

Maktabni bitirib, balog'at timsoli sanalmish attestatni qo'lga olgan paytimda, faqat birgina narsa – oqko'ngil Mashhura Haydarovna atroflicha ta'riflagan Toshkent dorilfununining diyorini ko'rish, shu ulkan dargohda ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha saboq egallash va nihoyat, shoiru jurnalist sifatida tanilish borasida mushohada yuritardim.

Axiyri, eshikdan chiqmasimdan burun sog'ina boshlagan ota-onam duoi fотиhasi

Asad DILMUROD

va mehr-u muhabbatini bag'rimga joylab, hayyo-huyt deya dangal yo'lga tushdim, qo'ng'iznuxsha shaloq aytobusda, ikki sinfdoshim – Mamatqul Hazratqulov va Abdujabbor O'rinboev bilan birga, do'ppini qiya qo'ndirgan ko'yi, xirgoyi jonivorni vang qo'yib borar ekanman, poytaxt zaminiga oyog'im tegar-tegmas bari orzuim ushaladigandek quvonardim.

Yarim yo'lda nimadir o'zgarib, havoyi masrurligim allabir g'ussa va ma'yusona tashvish bilan almashindi. Xayolim pardek to'zg'ib, xomush tortib qolganimni sezgan Mamatqul «parvo qilma» ma'nosida turtidi: to'ppa-to'g'ri tog'amnikiga boramiz. Ma'qul, ammo chaqirilmagan mehmon bo'lish uncha yarashmaydi-da, ehtimol, Eshnazar tog'a bilan Maktab yanga binoyidek ko'ngli ochiq, past-u balandni tushunadigan odamlardir, faqat uylari bizni qanday sig'diradi, yana bor-yo'g'i ikki xonali bo'lib, Xudo bergan bir qiz-u ikki o'g'li allaqachon bo'y yetib ulgurgan ekan...

Axiyri, ehtiyoj va zarurat andishadan ustun keldi-yu, shom-u xufton orasida, baxt-u taxtini izlab safarga chiqqan uch og'ayni botirlar, notanish kichik xonadonga iymana-iymana kirib bordik.

Dastlabki kecha qanday, qancha uxlaganim yodimda yo'q, ammo ko'zlarim ilinguniga qadar bizni bag'rini keng ochib qarshilagan kichik xonadonni katta bir olamga qiyoslaganim esimda: ertalab bu fikr-mulohazam qayta tasdiqlandi. Endi er-u xotin yuzida ayricha fayz-u farishta borligini yanada teranroq tuydim.

(Davomi bor)



**Abduhakim Rustamov**  
Samarqand viloyati,  
Urgut tumani, Qoratepa  
dahasiyadagi Tegirmonboshi  
qishlog'ida ziyoli oilada  
tavallud topdi. Samarqand  
Davlat universitetini  
tamomlab, mehnat  
faoliyatini Tersak  
qishlog'idagi Maqsud  
Shayxzoda nomli 90-  
maktabda boshladi.  
Keyinchalik 45-, 90-  
umumta'lim maktablarida  
ilmiy bo'lim mudiri,  
maktab direktori  
vazifalarida samarali  
mehnat qildi.  
Endilikda keksalik  
gashtini surayotgan ustoz  
Samarqand Davlat  
universiteti professori  
Abdurashid  
Abdurahmonovning  
«Urgut toponimikasi»  
kitobchasidagi fikrlardan  
qisman foydalangan holda  
bolajonlarga atab  
«Zavarzak va Qizarcha  
afsonasi» nomli doston  
yozibdi.  
Quyida ana shu doston  
parça o'qiydiz.

## ZAVARZAK va QIZARCHA afsonasi



– Poyloqchilar kelishdi, –  
Dedi boshliq hansirab.  
– Ajabto'vur odamlar,  
Kelishmoqda qonsirab.

Oyoqda poyabzal yo'q,  
Tirsak, poychada sovut.  
Boshlarida dubul'ga,  
O'sib ketgan soqol-murt.

Otlarga qo'shib olib,  
Bir narsa tortib kelar.  
Aravaga o'xshamas,  
Buni o'zlari bilar.

Jilmayib dedi Zarbar:  
– Quyosh tig'ida oyoq.  
Toshga bo'lmas barobar,  
Sovuti bizga mayoq.

Nayza, shamshir ish bermas,  
Gangib qolganda dushman.  
Qaydan o'q keldi, bilmas,  
Xursand bo'lar Arximan.

Ikki ming qirg'in mergan,  
Oshuvdan quyi tomon.  
Tariqdek sochildilar,  
Kelar dushman-olomon.

Dushman poyloqchilari  
Manzilga qaytolmasin.  
Lashkarboshilar hayron,  
Ne bo'lganin bilmasdi.

Tavakkal deb tog' sari  
Dushman tashladi qadam.  
Yo'l boshlovchilar ziyrak,  
Hushyor tortishar har dam.

To tushgacha hansirab,  
Dovon tomon yetishar.  
Hech kim xalal bermadi,  
Jimlikka ishonishdi.

Ona Zavarzak chidab,  
Otda turar kuzatib.  
– Azuramadza, saqla! –  
Der ko'kka qo'l uzatib.

Ajdar' boshi yetishdi,  
Zarudez poyi tomon.  
Na'ra tortdi pahlavon:  
Boshlang, – deya, – beomon!

Tarang tortilgan yoylar  
Bittadan o'q bo'shaidi.  
Cho'zilgan ajdar tanin  
Ayamay ushatishdi.

Boshlandi qiy-chuv, voy-dod,  
Tor og'izlar qiyshaydi.  
Sovutga o'q tekkanlar,  
Yelka qisib tumshaydi.

O'ng-u so'lga taxminan  
Zalab qilishdi ular ham.  
Kim-la jang qilish bilmay,  
Qolishgandir ancha kam.

Aleksandr' old qirdan  
Lashkarin kuzatardi.  
Lashkari yuqorida  
Qamishdek qirilardi.

Qolganlar taqqa to'xtab  
Etak tomon surildi.  
Aleksandr qo'shinga  
Qaytishga buyruq berdi.

1. Ajdar – chuvalanib kelayotgan dushman lashkari.

2. Aleksandr Makedonskiy – Iskandar Zulqarnayn. Eramizdan oldingi  
356–323-yillar.



Osimxon VOSIXONOV  
chizgan rasmlar

Aks sado

### «KO'CHANGIZDAN MEHMON O'TDI...» maqolasini o'qib...

Sevimli gazetam «Tong yulduzi»ni  
varaqlab o'tirib, «Ko'changizdan mehmon  
o'tdi...» maqolasini o'qib qoldim. Maqola  
yakunidagi tahririyatdan bildirilgan  
fikrlar aynan bizga qarata aytilgandek.  
Bundan biror hafta ilgari ko'chamizdan  
mehmon o'tib qolsa, uyalib qolishimiz  
tayin edi. Hozir esa ozoda va sarishta  
mahallamizga bemaol mehmonga  
kelaverib, bosh ustiga.



Gaplaringa tushunmayapsizmi,  
keling, unda bir boshidan gapirib bera  
qolay:

Bir kuni erta tongda ko'chadan  
eshitilayotgan «shitiir-shitiir» degan  
ovozdan uyg'onib ketdim. Derazadan  
qarasam, bir onaxon qo'shnimizning  
darvozasi atroflarini supurib yuribdi.  
Hayron bo'ldim. Negaki, bu  
qo'shnimizning hovlisi anchadan buyon  
ifloslanib yotar, uy egalaringning esa  
parvoyni palak edi.

Tushimmi yo'ngim? Yuzlarimni  
chimchilab ko'rdim. Bu onaxon kim  
bo'ldi ekan? Nega qo'shnimiz yoshi bir  
joyga borib qolgan ayolga ko'cha  
supurtiryapti? Bu savollarimga javob  
topish maqsadida ko'chaga oshiqdim.  
Onaxonning aytishlaricha, qo'shnimiz

Asror amakining onasi Halima buvi ekanlar,  
qishloqdan mehmonga kelibdilar.

Barvaqt turishga odatlanib qolgan  
onaxon toza havoda sayr qilish uchun  
ko'chaga chiqib, yer bilan bitta bo'lib  
yotgan xazonlarni ko'rib, g'ashlari kelibdi.

– Nabiram uyda uxlab yotibdi.  
Kelinimga uyg'oting, desam, dam olish  
kuni to'ygunicha uxlasin, deya unamadi,  
– dedilar onaxon biroz ranjigandek bo'lib.  
– Biz sizlardek paytimizda qonimiz  
zog'ora nonga to'ymasa-da, odim otishga  
quvvatimiz bo'lmasa-da, qo'limizdan  
supurgi tushmasdi. Tong yorishmasdan  
hammaning hovli-ko'chalari chinnidek  
qilib supurilgan, suv sepilgan bo'lardi.  
Chinni gul-u rayhonlar ekilgan  
ko'chalarning orastaligidan kishining bahri  
dili ochilardi...

Onaxonning gaplari menga juda ta'sir  
qildi. Ha, to'g'ri-da, yer to'la chiqindilar  
bo'lsa, havo ham ifloslanmaydimi? Bir  
yerdagi axlat uyumi o'n chaqirim nariga  
ham salbiy ta'sir ko'rstadi-ku, axir!

Sekingina uyga kirib, supurgini qidira  
boshladim. Ha, mana u. «Supurgijon,  
qalaysan? Zerikib qolmadimgi, kel, sen  
bilan Halima buviga bir qarashib  
yuboraylik», dedim.

U ham go'yo: «Voy, Bonu, o'zingmi-  
san? Yotaverib zerikib to'kilib ketay  
dedim-ku, qani, tezroq meni qo'lingga  
ol», deya yotgandek tuyuldi menga.

Ko'chaga chiqsam, dugonam Nafisa  
tushmagur mendan avvalroq boshlab  
yuboribdi supurishni.

– Siz dam olib o'tiring, buvijon. Biz  
o'zimiz supurib qo'yamiz, – desak,  
Halima buvi:

– Yo'q, o'tirgan bo'yra, yurgan daryo,  
deydilar, bolalarim, kelinglar, birgalikda  
supuramiz, – deya unamadilar...

Ertasi kuni tong otar-otmas telefon  
jiringlab qoldi. Erinibgina go'shakni  
ko'tarsam, dugonam:

– Bonu, derazadan qara, – dedi.

Yugurib beraza yoniga borib tashqariga  
qarasam, chor atrof yog' tushsa yalagudek  
supurilgan, suvlar sepilgan. Ariqlar  
tozalanib, begona o'tlar yulib tashlangan.  
Eng quvonarlisi, ko'cha supurayotgan  
qizlar orasida Halima buvining nabirasi  
Go'zaloy ham bor edi.

Nigorabonu QURBONOVA,

poytaxtdagi 256-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi

### «MENDA CHELAK YO'Q!»

Sentabr oyining o'rtalarida litseyimiz  
direktori Jumanazar aka Hasanov xona-  
ga kirib: «O'quvchilar, xabaringiz bor,  
shahrimiz bo'yab obodonlashtirish ish-  
lari qizg'in davom etyapti. Kelinglar, bu  
xayrli ishdan biz ham chetda qolmaylik»,  
dedilar. Shu kuniyoq tozalash ishlarini  
boshlab yubordik. Biz ko'p qavatli  
uy-larning atroflarini tozalashga kirishdik.

Bir xonadon eshigini taqillatib, bir  
chelak suv so'ragan edik, xonadon  
sohibasi, hashar-pasharingiz bilan ishim  
yo'q, sizlarga hech narsa bermayman,  
deya baqira ketdi.

– Qo'yaveringlar, o'ziga kelib qolar.  
Hali qilgan ishidan uyalib qoladi, – deya

yupatgan bo'ldilar guruhimiz rahbari xafa  
bo'lganimizni ko'rib.

Biz tozalash ishlarini davom ettiraver-  
dik, uylar atrofini supurib, suv sepdik.  
Buni ko'rgan boshqa xonadon egalari  
bizlarni duo qilib, qo'llariga supurgi, che-  
lak olib, yordamga oshiqishdi. Shu payt  
haligi xonadonning eshigi ham «g'iyq»  
etib ochilib, uy sohibasi qo'lida supurgi  
va bir chelak suv olib chiqib qoldi. Biz-  
ga uzr so'ragandek jilmayib qo'yib,  
safimizga qo'shildi.

Bundan g'ayratimiz jo'shib, atrofini  
bir zumda chinnidek qilib qo'ydik.

Yurtimizning sof, toza havosidan  
nafas olish qanday yaxshi!

Gulandom ZIYODULLAYEVA

Vera KAPUSTINA

# TIPRATIKAN HIYLASI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir satang Tulki bo'lgan ekan. Uning dastidan quyonglarga kun yo'q ekan. U shunday ayyor va epchil ekan, bironta quyongcha bir soniya bo'lsin qulog'ini ding qilib hushyor turmasa, shu ondayoq uning holiga voy ekan. Tulking dastidan o'rmonning barcha yuvosh jonivorlari behalovat yashashar, faqat ugina o'z hushiga mast bo'lib kun kechirarkan.



Xuddi shu o'rmonda tikuvchi Tipratikan ham yashar, o'rmondagi barcha hayvonlar unga ko'ylak va po'stinlarini tiktirar ekanlar.

Bir kuni Tulkidan bezor bo'lgan Quyonglar yig'ilishib, Tipratikandan yordam so'rashibdi:

– Bizga qanday maslahat berasiz, nima qilsak, uning changaliga tushmaymiz?

Tipratikan birpas o'ylab turib:

– Tulki juda ayyor, uni yengish uchun undan ham ayyor bo'lishimiz kerak va albatta, bir hiyla o'ylab topishimiz zarur, – debdi.

Tulki yasan-tusanga o'ch bo'lib, Quyong ovlamayotgan paytida ko'zgingun oldidan ketmasdi. Hali sochini tarar, hali dumini, uyoq-buyoqqa yurib, o'ziga mahliyo bo'lardi-da: «Eh, qanday chiroyliman», deb qo'yardi.

Tulki yangi tiktirgan po'stinini olish uchun Tipratikanning oldiga keldi. Po'stinni kiyib, oynaga qaradi.

– Bu po'stinda avvalgidan ham go'zal ko'rinyapman, – dedi maqtanib.

– To'g'riku-ya, lekin unchalik zamonaviy emas, – dedi Tipratikan.

– Nima uchun? – ajablendi Tulki.  
– Chunki zamonaviy bo'lish uchun taqinchoqlar ham zarur bo'ladi, zirak, uzuk... degandek. Senda esa ular yo'q.

– Voy, endi nima qilsam ekan-a? – dedi shoshib qolib Tulki.

Tipratikan shu zahotiyoyq bir dasta taqinchoqlarni olib chiqdi. Tulki ulardan bir nechtasini qulog'i, bo'yni va dumiga osib oldi.

– Xo'sh, endi qandayman? – deb so'radi Tipratikandan.

– Ana, hammasi joyida...

Tulki Tipratikanning uyidan chiqib borar ekan, taqinchoqlarning shaqir-shuqur ovozi eshitila boshladi. Yugursa, ular yana ham ko'proq shaqillardi. O'rmondagi quyonglar esa bu ovozni eshitib o'zlarini panaga olib, qochib qolishardi.

Oradan ikki kun o'tdi, Tulki hayron:

– Nima bo'ldi, hamma quyonglar qayoqqa ketishdi? Sen ularni ko'rmadingmi? – so'radi Tipratikandan.

– Yo'q, ko'rmadim, endi sen ham ko'rmasan, – dedi Tipratikan. – Ular sendan qochib, qo'shni o'rmonga ketishdi.

Tulki bir-ikki kun quyonglarni qidira-qidira, oxiri qo'shni o'rmonga yo'l oldi.

Hiylalari ish berganidan sevingan quyonglar berkingan joylaridan chiqib, xotirjam, sakrab-sakrab, eminerkin yashay boshladilar.

Tulki esa quyonglarni qo'shni o'rmondan topa olmay, undan ham nariga –uzoqlarga ketib qolibdi.

Zahro HASANOVA tarjimasini



## YOSHLAR, OGOH BO'LING!

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Komila Abduxoliqova gazetamizning faol muxlislaridan biri. Unda e'lon qilingan turli tanlovlarda ishtirok etadi. Mazkur yilda gazetamizda e'lon qilingan «Onajonim tabiat» respublika insholar tanlovining g'oliblari safidan munosib joy olgan Komila yaqinda maktabida bo'lib o'tgan bir tadbir haqida yozib yuboribdi.

## ODAM SAVDOSIGA QARSHIMAN

Yaqinda maktabimizda «Odam savdosiga qarshi kurash – davr talabi» shiori ostida anjuman bo'lib o'tdi. Unda viloyat, tuman ichki ishlar xodimlari, hokimiyat vakillari, jurnalistlar, qo'shni maktablardan kelgan mehmonlar ishtirok etdilar.

Tadbirda so'zga chiqqanlar bunday noxushliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'layotgan omillar haqida to'laqonli ma'lumotlar berdilar. Xorijga mo'may daromad ilinjida yo'lga chiqqan sodda hamyurtlarimizning u yerlarda chekkan azoblari va ayrim hollarda fojia bilan yakun topgan inson hayoti anjuman ishtirokchilarini larzaga soldi.

To'g'ri, qayerda ishlash – har bir insonning o'z xohishi. Ammo qonuniy yo'l bilan borilsagina maqsadga muvofiq bo'lishini bilib oldik. Anjuman sabab do'stlarim bilan odam savdosiga qarshi kurashchilarning biriga aylandik. Maktabimizda «Odam savdosiga qarshiman!» mavzusida burchak tashkil etdik. Uni ko'rgan odam o'ziga tegishli xulosa chiqarib olishiga ishonaman. Yagona maqsadimiz hech kim odam savdosining qurboniga aylanmasin!

Komila ABDUXOLIQOVA

## XANDLAR

Aka-uka xona ichida suv sochadigan pistoletlar bilan o'ynashmoqda. Ona oshxonadan tanbeh berdi:

- Bolalar, gilamni ho'l qilib yubormanglar!
- Oyijon, tashvishlanmang, pistoletlarimizga suv emas, yelim quyib olganmiz, – javob qaytardi bolalarning kattasi...




Fayzulla ABDULLAYEV


## SIRLI PIRAMIDA



(Namuna sifatida ko'rsatilgan)



Shunday to'g'ri yo'lni topingki, piramidaning cho'qisidan uning ostiga tushayotganingizda, 1 dan 6 gacha bo'lgan sonlar faqat bir marta uchrasin.



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Dilorom HOTAMOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

### Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 32774  
Buyurtma N: J 278